

“JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BOSH OBRAZLAR RUHIYATINING AKS ETISHI**To‘lqinova Aziza**

Kattaqo‘rg‘o‘n davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3 - bosqich talabasi.

tulqinovaaziza4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20058623>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Jaziramadagi odamlar” romani bosh qahramoni Lolaxon va uning atrofidagi insonlar taqdiridagi voqealar tahlil etilib obrazlarimizdagi xarakter xususiyatlardagi o‘zgarishlar, ichki kechinmalari haqida so‘z yuritiladi. Romandagi har bir qahramondan o‘zgacha temperament, inson ruhiyatining yashirin hissiyoti va mana shu g‘ayrioddiy kechinmalar qarama-qarshiligini uchratishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: *Obraz, obrazlilik, ruhiyat, psixologik, muhabbat, badiiy xarakter, tip.*

Аннотация. В данной статье анализируются события, влияющие на судьбу главного героя романа “Jaziramadagi odamlar” Лолакхона и окружающих его людей, а также рассматриваются изменения в чертах характера и внутренних переживаниях наших героев. Каждый персонаж романа может рассматриваться как обладающий уникальным темпераментом, скрытыми чувствами человеческой психики и противоречиями этих необычных переживаний.

Ключевые слова: *Образ, образность, психика, психологический, любовь, художественный характер, тип.*

Abstract. *This article analyzes the events in the fate of the main character of the novel “Jaziramadagi odamlar” Lolakhon and the people around him, and discusses the changes in the character traits and inner experiences of our characters. Each character in the novel can be seen as having a unique temperament, hidden feelings of the human psyche, and the contradictions of these unusual experiences.*

Keywords: *Image, imagery, psyche, psychological, love, artistic character, type.*

Kirish: Iste‘dodli yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” asarida mustaqillik davri ruhi orqali cho‘lquvarlar hayotini badiiy va jozibali til orqali tasvirlab ko‘rsatadi. Yozuvchi ushbu kitobida turli xil tuyg‘ular, jo‘shqin muhabbat, g‘aroyib sevgi hamda sadoqat, nafrat va g‘azab orqali qahramonlar psixologiyasini yoritadi. Obrazlar tizimi orqali o‘z badiiy mahorati bilan ajralib turuvchi ushbu asardagi bosh obraz va yordamchi obrazlar o‘z o‘rnida qo‘llanilgan. Roman qahramonlari turli toifalardan: rahbarlar, oddiy mehnatkash, ziyolilar va hattoki yoshlar. [1]

Yozuvchi ular orqali har bir insonda uchrovchi xarakter tillarini mahorat bilan tasvirlab beradi. Asar nomi nima uchun “Jaziramadagi odamlar” deb nomlangan. Bir qarashga kishini o‘ylantiruvchi nom. Yengil tasavvur orqali o‘quvchi uni tabiat tasviri deb o‘ylashi tabiiy, albatta.

Asarda “jazirama” –faqat tabiatning issiqligi emas, balki odamlar qalbidagi ma‘naviy jazirama, befarqlik va loqaydlik ramzidir. Yozuvchi shu metafora orqali adolat va zulm o‘rtasidagi kurashni, insonning ichki dunyosidagi issiq va sovuqlikni tahlil qiladi. Romanda adolat masalasi shunchaki ijtimoiy adolat bilan cheklanmaydi. Yozuvchi uni vijdon mezonida, ya‘ni insonning o‘zini o‘zi baholashida, halolligida, jamiyatdagi o‘rnini anglashida ko‘radi.[2]

Asar boshdan oyoq yetuk saviyadagi tahlilda olinganda undagi har bir detaldan tortib katta bir voqeagacha asar nomini anglashga yordam beradi. Jazirama bu shunchaki me'yoridan ortiq iqlim. "Jaziramadagi odamlar" esa mana shu hayot sinovida toblangan, qay bir qahramonlarimiz esa jaziramaga bardosh berolmagan qahramonlarimizdir. Badiiylik - san'atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri - badiiy obrazdir va u adabiyotshunoslik fanining markaziy muammosi sanaladi. Chunki adabiyotshunoslik ilmida «obraz» deganda inson ongida in'ikos etilgan voqea-hodisalargina emas, balki shu bilan birga so'z vositasida san'atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to'qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi. «...

Unda hech bir tasodifiy va ortiqcha narsa yo'q. Hamma qismlar butunga buyso'ngan, hammasi bitta maqsadga yo'naltirilgan, hammasi birlikda bitta go'zallik, yaxlitlik, individuallikni maydonga keltiradi» [3] Har bir obraz badiiy til mahorati yordamida obraz xarakterini sezish mumkin. Tasvirlash yo'li orqali esa muallif qahramonlarimizning ongimiz ostidagi suratini chizishga yordam beradi. Bosh plandagi asosiy obrazimiz bu Lolaxon.

Shaharlik yosh bu kelinchak taqdiri hayotining gullab yashnash chog'ida kutilmagan tasodif orqali o'zgarib ketdi. Kelinchakning 41-sovxoza ilk qadam qo'ygan paytlarida unda bunday tasavvurlardan zarracha bo'lsada xayoliga kelmagan. Shirin muhabbatining ortidan sevikli yori orqasidan cho'lquvarlar orasiga tushib qoladi. Undagi bunday hislar faqat va faqat quvonch va shodlik edi. Bunday tuyg'ular ortidan g'am va anduh tezda yetib keldi. Turmush o'rtog'ining ayrilig'idan so'ng unga bo'lgan e'tibor yana bir karra ortdi ammo uning ko'nglida bir kemtiklik, bo'shliq paydo bo'ldi. U bu bo'shliqni to'ldirishga urinib ham ko'rmadi chunki Lolaxonning haqiqiy sevgisi bunga yo'l qo'ymadi. Shunday holatlarda asil go'zallikni ko'rishimiz mumkin.

O'roqjon - Fayzulla akaning katta o'g'li. Uning tabiatini o'zgartirish orqali asarni tasavvur etish qiyin chunki O'roqjon bosh obraz va bu unga turi keluvchi eng to'g'ri xarakterdir.

Bir oilada ikki xil farzandning voyaga yetishi O'roqjon va Ashur obrazlari orqali yoritiladi. Sodda va samimiy insonlar hamisha va har yerda o'z o'rinlariga ega bo'lishadi.

O'roqjon sodda, ishonuvchan va o'ta darajada mehribon inson. Uning bu darajada yetishishiga muhit tarbiyasi sababchi desak yanglishmaymiz. Barchaning ko'nglini birdek oluvchi qahramonimiz ruhiyatida faqatgina yaxshi xislatlarga o'rin bor. Lolaxonniki kabi vijdon, muhabbat, kamdan-kam uchrovchi sadoqat tuyg'ulari uning vujudini chulg'ab olgan ammo qo'rquv ham unga begona emas.

O'z o'rnida ko'ringan bu his unga oldindan ogohlantirishdek paydo bo'ldi va bu ham bekorga emas edi. Qahramonimiz oldindan his etish eruditsiyasini shu vaziyatlarda qo'llay bilgan. Taqdirning achchiq qismati bu ikki yoshni ayirdi. Natijada faqatgina Lolaxonning o'zigini ayriliq hissini tuyib qoldi.

Ashur - O'roqjonning ukasi. Akasiga nisbatan quv va tanti bu obraz xarakterida esa bir oz ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik kabi yomon odatlarni uchratamiz. Ashur qiziqqonlik bilan ish yurutib oxirida shoshqaloqlik bilan ish ko'ruvchi qahramonimiz va asar oxirida u o'zining kutilmagan xatosi tufayli aziyat chekadi va qilgan qilmishida yarasha jazosini oladi. Balki keyingi holatlarda uning pushaymonligini ko'rishimiz mumkin ammo vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi.

Samadjon - obrazi yosh beg'ubor bola. Butun boshli asar Samadjon tilidan hikoya qilinadi. Uning bolalik yillaridan boshlab talabalik onlariga qadar bo'lgan voqealar tilga olinadi.

Samadjonga xos bo'lgan xarakter xususiyatlaridan qiziquvchan sho'x va shaddod obraz.

U kelin yangasiga va atrofdagilarga nisbatan juda mehribon ammo ba'zi o'rinlarda ishonuvchan obraz. Uning birovga nisbatan adovati yo'q. Baxtli bolalikning erta qurboni desak ham yanglishmaymiz chunki nega deganda mudhish bir voqeaga guvoh bo'lib kasallikka chalingan va ota-onasining qistovi sababli o'z uyidan ajratilgan. Samadjonning boshqalarga o'xshamagan ruhiyatida sof vijdon yetakchilik qiladi. Unga Lolaxonning oxirgi aytgan so'zlari hanuzgacha tinchlik bermaydi. Yosh qahramonimiz yosh kelinchakning o'limida o'zini aybdor his etib kaladi ammo bo'lib o'tgan voqealarda uning oz bo'lsada aybdorligi bo'lmaydi.

Luqmon Bo'rixon Samad obrazida shunday xulosaga keladi: "Zulm faqat zulm qiluvchining qo'lida emas, balki jim turganning yuragida ham yashaydi." Samadning ichki monologlari asarning psixologik kuchini oshiradi. U o'zini oqlamoqchi bo'ladi, "men aybdor emasman" deydi, lekin vijdoni unga tinchlik bermaydi. Shu orqali yozuvchi o'quvchini o'ylashga majbur qiladi: jimlik –bu tinchlikmi, yozulmning davomimi? Samadning fojiasi shundaki, u yaxshi odam, lekin yaxshi bo'lishning o'zi yetarli emas. Inson jamiyatda adolatni himoya qilmasa, u ham zulmning soyasiga kiradi. [3]

Muhokama va natija: Ushbu romanning bosh obrazlarini tahlil qilish jarayonida obrazlarning o'ziga xos xarakter jihatlari yoritilib berildi. To'rt asosiy obrazlarimiz roman syujetidan kelib chiqqan holda tahlil qilindi. Bu jarayonda lolaxonning ayanchli taqdiri, O'roqjonning erta so'ngan umri, Ashurning achchiq qismati va samadjonning yoddan chiqmas xotiralari o'qurmanga o'zgacha ruh va pafos baxsh etadi. Romanning yakunlanish jarayonida voqealar rivojidadagi tub o'zgarishlar sodir etilganda asar bu darajada yetuk saviyaga chiqmas edi.

Xulosa: "Jaziramadagi odamlar" romanida yigirmanchi asr o'zbek adabiyotining mustaqillik davrigacha bo'lgan maishiy hayotini yoritib berganligi bilan badiiy pafos tomonlama yuqori baholanadi. Asardagi har bir obraz o'z voqeligiga ega. Qahramonlarimiz taqdiri o'quvchiga o'zgacha ta'sir etadi. Ularning ruhiyati ham qay bir ma'noda charxdan o'tkaziladi, barcha paytlarda ham ular bir xil bo'lavermaydi. Asarning so'ngigacha qahramonlarimizni ijobiy yoki salbiy xarakterga ega qilib ajratolmaymiz.

Shuningdek, adib Lolaxonning taqdiri va o'zlashtirilgan yer misolida inson tabiatini sun'iy lashtirishga urinishning fojiaiy oqibatlarini ochib bergan. Ayrim insonlarning tomirida qon bo'lib oqayotgan soxtalik, riyokorlikni ayovsiz fosh qiladigan jihatlar badiiy til vositalarida yuqori darajada tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Luqmon Bo'rixon "Jaziramadagi odamlar" "Abadiy barhayot asarlar" turkumi _Toshkent: "Oltin qalam", 2024.
2. Hotam Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" – Toshkent "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti, 2004. 32 bet
3. [3. http://journals.org/index.php/ust/article/view/5215](http://journals.org/index.php/ust/article/view/5215)
4. [4. https://www.researchgate.net/profile/BoburjonRajavaliyev/publication/366517620_DEV_ONI_HIKMATDA_ISHQ_TALQINI_page_419/links/63a49aef03aad5368e30db2d/DEV_ONI-HIKMATDA-ISHQ-TALQINI-page-419.pdf - page=484](https://www.researchgate.net/profile/BoburjonRajavaliyev/publication/366517620_DEV_ONI_HIKMATDA_ISHQ_TALQINI_page_419/links/63a49aef03aad5368e30db2d/DEV_ONI-HIKMATDA-ISHQ-TALQINI-page-419.pdf)